


# SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*

<b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>	<b>57 511</b> 116,5 %
<b>Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar</b>	<b>54 163</b> 116,1 %
<b>Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvar-dekabr)</b>	<b>10 877</b> 98,3 %

Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



■ 2022- y. ■ 2023- y.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,0** foizga oshdi





■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,5** foizga oshdi






## Kichik tadbirkorlik subyektlari

## Mikrofirmalar

## Kichik korxonalar



**8,2** foizga oshdi




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


## Oilaviy korxonalar



**10,9** foizga oshdi




**1,8** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **16,2** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **1,6** foizga kamaydi




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar









## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 11 235 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 609 taga yoki 16,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 10 499 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 458 taga yoki 16,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 295 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,1 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tuman (shahar)lar kesimidagi soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 723 tani tashkil etib, ulardan 710 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 64 taga yoki 9,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 86 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)



# Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>710</b>	<b>446</b>	<b>264</b>
<b>Afg'oniston</b>	<b>54</b>	<b>22</b>	<b>32</b>
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>97</b>	<b>69</b>	<b>28</b>
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>37</b>	<b>21</b>	<b>16</b>
<b>Qozog'iston Respublikasi</b>	<b>19</b>	<b>12</b>	<b>7</b>
<b>Janubiy Koreya Respublikasi</b>	<b>49</b>	<b>35</b>	<b>14</b>
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>116</b>	<b>68</b>	<b>48</b>
<b>Tojikiston Respublikasi</b>	<b>19</b>	<b>11</b>	<b>8</b>
<b>Turkiya Respublikasi</b>	<b>125</b>	<b>68</b>	<b>57</b>
<b>Amerika Qo'shma Shtatlari</b>	<b>22</b>	<b>16</b>	<b>6</b>
<b>Boshqalar</b>	<b>172</b>	<b>124</b>	<b>48</b>

Viloyatda 2023- yil 1- yanvar holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 710 tani tashkil etadi, shundan 446 tasi qo'shma korxonalar, 264 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi. Davlatlar kesimida ko'rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Turkiya Respublikasi 125 ta, shundan 68 tasi qo'shma korxonalar, 57 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 97 ta, shundan 69 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasi 116 ta, shundan 68 tasi qo'shma korxonalar, 48 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Turkiya Respublikasi 17,6 %, Xitoy Xalq Respublikasi 13,7 %, Rossiya Federatsiyasi 16,3 %, Afg'oniston 7,6 %, Janubiy Koreya Respublikasi 6,9 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 3,1 % ga to'g'ri kelmoqda.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi tuman (shahar)lar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Samarqand viloyati	710	446	264
Samarqand sh.	330	183	147
Kattaqo'rg'on sh.	25	20	5
tumanlar:			
Oqdaryo	33	22	11
Bulung'ur	25	13	12
Jomboy	48	34	14
Ishtixon	18	12	6
Kattaqo'rg'on	16	10	6
Qo'shrabot	22	10	12
Narpay	6	3	3
Payariq	17	10	7
Pastdarg'om	35	25	10
Paxtachi	10	6	4
Samarqand	42	31	11
Nurobod	13	12	1
Urgut	56	45	11
Toyloq	14	10	4

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tuman (shahar)lar bo'yicha soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 57 511 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Samarqand shahrida (28,4%), Urgut (8,5%), Pastdarg'om (8,5%), Samarqand (7,2%), Ishtixon (5,4%), Payariq (5,3%), Kattaqo'rg'on (5,0%), Oqdaryo (4,4%), Toyloq (4,4%), Bulung'ur (4,2%), Jomboy (4,0%), Kattaqo'rg'on shahri (3,2%), Narpay (3,2%), Nurobod (3,2%), Paxtachi (2,7%) va Qo'shrabot (2,4%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tuman (shahar)lar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 10 877 ta soniga nisbatan hududlarlagi ulushi, Samarqand shahrida (24,6%), Pastdarg'om (8,5%), Urgut (8,5%), Samarqand (8,1%), Ishtixon (6,1%), Oqdaryo (5,0%), Kattaqo'rg'on (5,3%), Payariq (5,0%), Toyloq (4,8%), Bulung'ur (4,8%), Jomboy (4,3%), Nurobod (3,9%), Narpay (3,0%), Paxtachi (2,8%), Kattaqo'rg'on shahri (2,9%) va Qo'shrabot (2,4%) tumanlari ulushiga tegishli.






2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda jami 2 295 korxonalarining viloyatga nisbatan ulushi, Samarqand shahrida (17,1 %), Kattaqo'rg'on (11,9%), Pastdarg'om (10,2%), Payariq (11,2%), Samarqand (7,9%), Bulung'ur (6,9%), Urgut (5,4%), Jomboy (4,7%), Oqdaryo (4,6%), Ishtixon (4,3%), Toyloq (4,5 %), Narpay (3,7 %), Paxtachi (3,6 %), Qo'shrabot (1,9%), Kattaqo'rg'on shahar (1,7 %), va Nurobod (0,4 %) tumanlari ulushga ega.

## Tuman (shahar)lar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi**

**Tel.: 66 235-14-42**